

TALABALARDA MUSTAQIL BILIM OLISH VA AXBOROT BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Muratova Nafisa Baratovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda axborotni mustaqil izlash ko'nikmasini shakllantirish mavzusiga bag'ishlanib, unda axborot bilan ishlash tizimini tashkil qilinishi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qidiruv, izlash, axborot, tizim, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация:

Данная статья посвящена теме формирования способности к самостоятельному поиску информации у будущих учителей и содержит сведения об организации системы обработки информации.

Ключевые слова: поиск, информация, система, компетентность, компетентностный подход.

Abstract:

This article is devoted to the topic of forming the ability to independently search for information in future teachers, and it contains information about the organization of the information processing system.

Keywords: search, search, information, system, competence, competence approach.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati jamiyatda axborot bilan ta'minlanishga munosabatni tubdan o'zgartirish zaruratini keltirib chiqarganligi sababli, hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini barcha sohalarda qo'llash va yanada rivojlantirishga muhim e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek, - "Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda keying yillarida axborot bilan ishlash tizimida muhim ishlar amalga oshirildi. Ya'ni bu borada olib borilgan samarali izlanishlar axborot kommunikatsiya sohasida muvaffaqiyatlar mezoniga aylandi. Bu esa ta'lim tizimida axborot tizimi bilan ishlashga imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochib bera oldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida elektron davlat xizmatlari ko'rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini 2 barobar oshirib, 4 millionga yetkazish masalasi ta'kidlangan [1].

Axborot bilan ishlash tizimi haqida to'xtalar ekanmiz bunda alohida e'tiborga molik tomon yoshlarni to'g'ri yo'naltira bilish lozim. Bu muammo bugungi kun pedagoglari zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Ya'ni shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda yosh avlodni yetuk kadrlar qilib tayyorlashga mas'ul bo'lgan pedagoglar oldiga qo'yilayotgan talablar nihoyatda yuqori bo'lib, ular sifat jihatidan yangi, intellektual, ma'nan barkamol va yuksak professional salohiyatli shaxslarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bunday maqsadlarga erishish uchun, avvalo, ta'lim muassasalari faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratish, axborot bilan ishlash tizimini samarali tashkil qilish muhim sanaladi.

Yangi asrda jamiyatning eng keng qatlamlari uchun ochiq va qiziqarli bo'lgan doimiy o'sib borayotgan turli xil ma'lumotlarning katta miqdori bilan tavsiflanadi. Axborot izlash yoki ma'lumot olish asosiy axborot jarayonlaridan birini ifodalaydi. Izlashning maqsadlari, imkoniyatlari va hususiyati har doim ma'lumotlarning mavjudligi, uning ahamiyati va foydalanish imkoniyati, shuningdek qidiruvni tashkil etish vositalariga bog'liq bo'lgan. Internet texnologiyalari va dasturiy apparat vositalari ushbu jarayonni istalgan vaqtda, deyarli hamma joyda, istalgan so'rov bo'yicha amalga oshirish imkonini beradi.

Izlash - bu u yoki bu ketma-ketlikda qidirilayotgan ob'ekt massivda saqlangan har bir ob'ekt bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Har qanday izlashning maqsadi - izlashni amalga oshirayotgan shaxsga o'zining kasbiy, madaniy va boshqa har qanday darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va bilimlarni olishga yordam beradigan har xil turdagi ma'lumotlarni topishga bo'lgan ehtiyoj, zaruriyat yoki xohishni hisoblanadi. Shuningdek, yangi ma'lumotlarni olish va yangi bilimlarni yaratishimkonini beradi.

Axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi eng avvalo, axborot tayyorlash, unga "ishlov berish", saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazish bilan bog'liq bo'ladigan ishlarga sharoit yaratish hisoblanadi.

Bu borada jamiyatning faol tashkil etuvchilaridan biri shubhasiz yoshlardir. Shunday ekan, yoshlarni axborot bilan ishlash tizimini to'g'ri tashkil etish o'rinli sanaladi.

Axborotlarga asoslangan, maqsadi oldindan belgilangan va shu maqsadga erishish dasturi ishlab chiqilgan boshqariluvchijarayonga maqsadli ta'sir ko'rsatish - qaror qabul qilish deb ataladi. Qarorning shakllanish jarayoni esa - qaror qabul qilish jarayoni deb yuritiladi. Tashkilotni boshqarish doirasida mehnat taqsimotiga muvofiq qabul qilinadigan qarorlarboshqaruvning u yoki bu vazifasiga kiradi. Qaror qabul qilish jarayonini ta'minlash, ya'ni aynan, kerakli axborotni kerakli vaqtda va kerakli joyga taqdim etish - tashkilot axborot tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois ham qaror mohiyati, uni qabul qilish jarayoni, qaror qabul qilishningbarbod bo'lishi tashkilotning axborot tizimi faoliyatiga, u yerda

qo'llaniladigan texnologiyaga sezilarli ta'sir qiladi va hatto axborot tizimini, qaror qabul qilish tizimini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Axborot bilan ishlashda kompetensiya tizimi muhim ahamiyat kasb etganligi bois to'xtalish joiz hisoblanadi. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, mediamadaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ya'ni talabalar axborotlarni qabul qilish barobarida ularni tegishli fan sohalari bo'yicha qo'llay olishi shart hisoblanadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etishni yuzaga keltiradi.

Ushbu yondashuvga asoslanish uchun talabalarning kompetentligini takomillashtirish shart va zarur.

Kompetensiya - bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko'rinishi [2.26].

Ayni paytda kompetentlik bu nafaqat bilimlarga ega bo'lish, balki ularni amaliyotga moslashtira olish imkoniyati hamdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim - talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarda axborot tizimi bilan ishlash kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalarga to'xtalishni joiz deb bildik. Chunki talaba axborot tizimi bilan ishlay olganda ya'ni to'g'ri ish tizimini yarata olganda bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotga qo'llay olish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Muhimi talabalarning dars samaradorligiga erishish miqdori yuqori bo'lishini tajribalarda kuzatish mumkin.

Talabalarda axborot bilan ishlash tizimi tashkil qilinmasa an'anaviy ta'lim shakli olib boriladi. Uning natijasida quyidagilarga erishishiladi.

- didaktik materiallarni va ularni o'rganish metodlarini faqat o'qituvchi tanlaydi;
- ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlar mavzu mazmunidan kelib chiqib belgilanadi;

- ta'lim berish jarayoni tizimli amalga oshiriladi;
- didaktik materiallarning o'zaro uzviylikda uzatilishi, avvaldan ma'lum bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni berish bilan chegaralanish;
- o'rganiladigan bilimlar hajmining bir qolipga solinganligi;
- "ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi" munosabatlari yetakchi hisoblanadi;
- tayyor namuna asosidagi mashqlardan keng foydalaniladi.

Talabalarda axborot bilan ishlash tizimini tashkil qilinishi natijasida noan'anaviy ta'lim shakli samaradorligiga erishish mumkin. Ya'ni:

- o'rganilayotgan mavzu yuzasidan asosiy g'oya va mazmunni o'qituvchi

ko'rsatibberadi, material mazmunini to'ldirish ta'lim oluvchilar bilan birga amalga oshiriladi;

- ta'lim oluvchilardagi ijodiy "uyg'onishlar" tufayli tasodifiy burilish va chetga chiqishlar yuzaga keladi;

- didaktik materiallarga ta'lim oluvchilarda axborotlarni qabul qilishda ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan materiallar kiritib boriladi;

- ta'lim oluvchilardagi ijodiy tasavvurlarning kengligiga qarab bilimlar hajmi chegaralanmaydi;

- "ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi" munosabatlari qatorida ta'lim oluvchi munosabatlariga keng o'rin beriladi;

- muammoli ta'limga keng o'rin beriladi. Talabalarning axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlanish bosqichlarida:

- axborotlarni qabul qilishga doir ehtiyojlar va ularni yuzaga keltiradigan omillarning mavjudligi;

- zarur bo'lgan axborotlar haqida tasavvurga ega bo'lish va ularni izlash, zararli va foydasiz axborotlarga nisbatan tegishli immunitetning mavjudligi, axborotlashning texnik vositalaridan foydalana olish;

- axborotlarning mohiyatini tushunish, ularni bilim sifatida o'zlashtirish, kengaytirish va tizimga solish;

- mavjud muammo yoki vaziyatlarning yechimini topishga doir amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, yuzaga keladigan vaziyatlar haqida faraz qilish;

- mustaqil ravishda turli media manbalar (global internet tarmog'i, elektron pochta) dan axborotni izlab topa olish, dastlabki tahlil qila olish va o'z bilimlarini joriy qilish.

- O'z o'rnida bilimlarni tegishli fan sohalarida qo'llay olish, muammolarni hal qilish, vaziyatlarni baholay olish va kerakli farazlarni ilgari surish ta'lim oluvchilardan ijodkorlikni talab qiladi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini to'g'ri tashkil qilinishi uning takomillashishi va samaradorlikka erishishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil, 22 avgustdagi PQ-357 sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-6166539>.
2. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
3. Begimqulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish. // "Pedagogik ta'lim" jur, № 1, 2004.

4. Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T: Fan va texnologiyalar, 2011. – 131 b.
5. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T., 2002. – 148 b.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 3 b.
7. <http://www.edu.uz/>.
8. <http://www.ziyonet.uz/>.